

**YER RESURSLARI (FONDI) – YERDAN FOYDALANISH IQTISODIYOTINING
OB’EKTI SIFATIDA**

Razzaqberganov Asrorbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To’rtko’l fakulteti talabasi

Ozodova Zilola

Qoraqalpog’iston qishloq xo’jaligi va agrotexnologiya insitituti

Annonatsiya

Mazkur maqola ushbu nomdagi mavzuning o’quv dasturiga mos tarzda tayyorlangan. Ushbu maqolada yer resurslaridan samarali foydalanish, nazariy-uslubiy muammolari, shuningdek yerdan foydalanishning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy tamoyillari, mexanizmi va ko’p maqsadlilik xarakteri va boshqa shu kabi yo’nalishlar yuzasidan muammolarni aniqlash, shuningdek ularning yechimlari yuzasidan muayyan fundamental, tizimli, metodologik va amaliy asoslari bilan bog’liq masalalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Tabiiy antropogen, eroziya, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari.

Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd. gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd. gektari, ya’ni 11 % qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi⁹. Ularning miqdori va sifati tabiiy va antropogen omillar va jarayonlar ta’sirida yildan yilga kamaymoqda. Demak, global oziq-ovqat muammosini echish va iqtisodiyot, ayniqsa qishloq xo’jaligida foydalanish uchun cheklangan yer resurslarining samaradorligini oshirish kelajakda ekstensiv emas, balki intensiv yo’llarni qo’llash, shuningdek yer mulkdorlari, egalari va ijarachilarining yerlardan intensiv foydalanishga investitsiya kiritish, yerlar unumdorligini saqlash va oshirish, umuman yerlarning resurs sifatidagi funksiyalarini yanada kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadigan tizimni shakllantirish munosabatlari va mexanizmlari bilan ham bevosita bog’liqdir. Insoniyat tomonidan turmush kechirish uchun va jamiyat hamda iqtisodiyot, ayniqsa qishloq xo’jaligida foydalanish maqsadlarida yangi yerlarni o’zlashtirish bilan birga mavjud yerlar meliorativ holatining buzilishi, eroziya, qurg’oqchilik, sho’rlanishning kuchayishi va yer osti suvlarining ta’siri, sanoat va transport qurilishlari, foydali qazilmalarning ochiq tarzda o’zlashtirilishi natijasida foydalanishdagi, ayniqsa qishloq xo’jaligi yerlarining oborotdan chiqarilishi global miqyosda jadallashib bormoqda. Shuning uchun dunyo yer fondining asosiy muammosi – yer resurslari (fondi) dan foydalanishni tartibga solish bo’lmoqda. Ko’plab mamlakatlarda yer fondini saqlab qolish va ularning tarkibini tartibga solish bo’yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O’zbekistonning ham BMT, YUNESKO, FAO kabi xalqaro tashkilotlar hujjatlariga implementatsiya bo’lishi va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishi dolzarb

bo‘lmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining farmon va qarorlari ham yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy yondashuvlari va mexanizmini innovatsion tarzda rivojlantirish zarurligi va ahamiyatini yana bir karra tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 31 maydagi PF-5065-son “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 9 oktyabrdagi PF-5199-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va 2018 yil 20 apreldagi PQ-3677-son “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda yer resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy aktlar belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasining ma‘lumotlariga qaraganda, 2018 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi, shundan sug‘oriladigan yerlar 4311,5 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi. Yer kodeksining 8-moddasiga binoan mamlakatimiz yer fondi 8 ta toifaga bo‘linadi. Jumladan, umumiy yer maydoniga nisbatan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar 45,13 foizni, aholi punkti yerlari 0,49 foizni, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar 1,91 foizni, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan 74 yerlar 1,57 foizni, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar 0,03 foizni, o‘rmon fondi yerlari 24,84 foizni, suv fondi yerlari 1,86 foizni va zaxira yerlar 24,16 foizni tashkil qiladi. Shuni e‘tirof etish zarurki, iqtisodiyot uchun nihoyatda muhim hisoblangan qishloq xo‘jalik yer turlarining sifat holati respublikaning aksariyat mintaqalarida talabga javob bermaydi. Ularning 50 foizdan ortig‘i sho‘rlangan, meliorativ holati yomonlashgan; 8,0 foizi eroziyaga uchragan va 4,0 foizga yaqini tosh aralashgan maydonlarni tashkil etadi. Mamlakat hududi arid mintaqada joylashganligi sababli, dehqonchilik asosan sun‘iy sug‘orish yordamida amalga oshiriladi. Lekin keyingi yillari sug‘orish suvi taqsimotini cheklanganlik sharoitiga o‘tishi ham sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish samaradorligiga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ham yerlardan (ayniqsa sug‘oriladigan) foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni va umuman atrof muxitning ekologik holatini muhofaza qilish bugungi bozor sharoitida asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga yer resurslarini (fondini) tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlashni optimallashtirish yerdan foydalanish tizimining muhim muammosi hisoblanadi. Uni nazariy jihatdan o'rganish talab qilinsa, echish esa yerlarni taqsimlashni optimallashtirish va hududlarni tabiiy-iqtisodiy zonalashtirish bilan bog'likdir. Yerlarni taqsimlashni optimallashtirish masalalariga yondashuv yerlardan foydalanish turlari, ularning tarkibi, dinamikasi va o'ziga xos xususiyatlari, yerdan foydalanishning har bir turidan foydalanish samaradorligini 75 (iqtisodiy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik) baholash nuqtai nazardan bo'lishi kerak. Har bir faoliyat sohasi, iqtisodiyot tarmoqlarida yerdan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish kerak. Umuman olganda yer resurslaridan foydalanishda ularning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda yondashuv talab etiladi. Avvalambor, yer resurslaridan foydalanish darajasini aniqlashda asosiy e'tibor, birin-chidan, yerlardan foydalanish maqsadiga ko'ra ularni qaysi toifaga kirishini aniq belgilab olish, ikkinchidan, amaliyotda qo'llanilayotgan toifalardan kelib chiqqan holda har bir toifadagi yerlarning holati, dinamikasi va foydalanish darajasi tahlilini amalga oshirish va nihoyat, uchinchidan, mavjud muammo, kamchilik hamda nomutanosibliklarni aniqlash zarur. Albatta, yer resurslaridan foydalanish darajasini bevosita bir-biriga bog'liq holda o'rganish ma'lum darajada ularga kompleks yondashishni taqozo etsada, asosiy e'tiborni alohida yer toifalari bo'yicha amalga oshirishga qara-tish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki yer resurslaridan foydalanish darajasi barcha toifalarda turlicha va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanish ko'rsatkichlari turlichadir. Masalan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish darajasini aniqlashda avvalambor, yerlarning tabiiy-iqtisodiy unumdorligidan kelib chiqqan holda asosiy ko'rsatkich hosildorlik hisoblanganda, ular unumdorligining pasayishi, meliorativ holatining yomonlashishi bilan bog'liq salbiy holatlari ham e'tiborga olinmog'i lozim. Eng muhimi, barcha foydalaniladigan yerlar uchun ular tabiiy holatining buzilmasligi va mavjud yerlardan maqsadli va samarali foydalanish hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, har bir hududda yer fondi va uning toifalari bo'yicha taqsimlanishi turlicha bo'lib, qishloq xo'jaligi, o'rmon va suv fondi hamda zaxira yerlarining ulushi yuqoridir. Qishloq xo'jaligi yerlariga alohida e'tibor qaratilgan holda, ularni yuqori sifatli yerlar fondiga kiritiladi va oqilona foydalanishni hamda muhofaza qilishni talab etadi. Shuning bilan birga ulardan foydalanish yuki ko'p qirrali hisoblanadi. Bu yerlarning ushbu toifasi ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida, nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ta'minlaydi, balki agrolandshaftni tashkil qilgan holda, qulay tabiiy muhitni tashkil etishda ham ekologik vazifalarini amalga oshirishi bilan bog'liqdir. Mamlakatimiz bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining taqsimlanishi tabiiy omillar ta'sirida aniqlanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bilan shug'ullangan qishloq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari, muassasalari va tomorqa xo'jaliklarining umumiy yer maydoni 2018 - yil 1-yanvar holatiga 20261,6 ming gektarni, shundan qishloq xo'jaligi yer

turlari maydoni 15543,7 ming gektarni yoki 76,7% ni, shu jumladan, sug'oriladigan yerlar 3702,4 ming gektarni yoki 18,3% ni tashkil etmoqda. Mustaqillik yillarida yer resurslaridan foydalanish tizimida, ayniqsa agrosanoat majmui sohalaridagi olib borilgan islohotlar davomida tarkibiy va institutsional o'zgarishlar keng ko'lamda amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Iqtisodiy tadqiqotlari markazi www.cyer.uz
2. "Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // PQ 2340, 28.04.2015 y
3. . «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori //PQ-3024, 31.05.2017 yil.
4. ALTIEV A.S."Yerdan foydalanish iqtisodiyoti" .